



OLMANING PAKANA KLON PAYVANDTAGLARI VA ULARNING INTENSIV BOG'LARDAGI O'RNI.

Ahmadov Muhammadsharif Yashin o'g'li

Buxoro davlat universiteti talabasi

Zamonaviy intensiv bog'dorchilik asosan past bo'yli vegetativ yo'l bilan ko'paytiriladigan payvandtaglarga asoslangan (V.I.Budagovskiy, 1976, V.A.Gryazev, 1991, V.A.Samus, 2007). Past o'sadigan payvandtaglardagi daraxtlar baland ko'chatlarga qaraganda qaralik katta emas – pakana (karlik) tipidagi payvandtaglarda o'simliklar 30% ga, yarim pakana payvandtaglarda - an'anaviy bog'larning 60-70% ga etadi.

Klon payvandtaglarning afzalliklari:

Ko'chatlarning erta meva berish darajasi ikki baravar ko'payadi;

Birinchi mevalar (hosil) ko'pincha ikkinchi yoki uchinchi yilda olinadi;

Hosildorlik jihatidan ular kuchli o'sadigan payvandtaglarga ulangan navlardan bir yarim-ikki baravar oshadi;

Bundan tashqari, past o'sadigan ko'chatlarda barcha ishlar (kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish, agrotexnik tadbirlar va b.) samaraliroq amalga oshiriladi;

Hosildorlik, ayniqsa, yig'im-terim davrida 3-4 baravar oshadi; Pakana klon payvandtagdagi daraxtlar tuproq-iqlim sharoitlariga yaxshi moslashadi;

Tuproq sho'rланishi va karbonat tarkibiga yaxshi bardosh beradi[2] ;

Qurg'oqchilikka chidamliligi yuqori [1];

Pakana payvandtagdagi daraxtlar 15-20 kun oldin o'sishni tugatadi va buning natijasida qish davriga yaxshi tayyorlanadi [1];

Bularning barchasi past bo'yli bog'larni noqulay o'sish sharoitlariga chidamli qiladi;

Klon payvandtagli bog'larning mashhurligi doimiy ravishda o'sib bormoqda. G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'z meva hosillarining 80 foizini pakana tipidagi payvandtaglarga ulangan meva daraxtlari plantatsiyalaridan oladi. Rossiyaning janubida va qo'shni mamlakatlarda past o'suvchi karlik payvandtagli bog'lar allaqachon 40% ni egallaydi.

Meva ekinlarining vegetativ yo'l bilan ko'paytiriladigan klon payvandtaglari bilan kuchli o'suvchi urug'lik payvandtaglari ishonch va dadilllik bilan tarzda almashtirilmoqda, bu esa ildiz tizimining yuqori regenerativ qobiliyatini oshishiga





yordam beradi, ko'chatlar va bog'dagi ko'chatlarning yuqori darajada chidamlilik darajasini ta'minlaydi. Bunday zamonaviy yondashuv har 10-15 yilda bir marta ekiladigan ona ko`chatzoridan arzimas kuch va mablag‘ sarflagan holda gektariga 100-150 ming standart qalamchalar yetishtirishni kafolatlaydi.

Hozirgi davrda bog`dorchilik xo‘jaliklarida aynan mana shunday sifatlari klon payvandtaglarga zarurat borligi sezilmoqda.



1-rasm. M9 klon sust o'suvchi payvandtag

**2-rasm.MM106 o'rta o'suvchi klon payvandtag**

Klon payvandtaglarning qisqacha tarixi. Klon payvandtaglarni vatani Old Osiyodir. Bularga Kavkaz va Kavkaz orti mamlakatlari ham kiradi [1]. Rim imperiyasi davrida bu yerlar Yevropaga qarashli bo'lgan. Klon payvandtaglardan XV asrda Frantsiyada foydalana boshlashgan. G'arbiy Yevropada XVIII asrda keng qo'lama qo'llana boshlangan. XIX asrda Qrimga olib kirilgan, bizning diyorimizga ham 1902 y. R.R.SHreder tomonidan olib kirilgan. Bu Dusen, Paradizka turlari edi. Payvandtaglar turi ko'p bo'lsa ham boshida ularni ajratadigan guruh va raqamlari bo'lмаган [2,3].

1912-yili Angliyaning Ist-Moling tajriba stantsiyasida R.G.Xerton payvandtaglarni har xil davlatlardan bir necha turlarini bir yerga jamlab, birinchi bo'lib ularni bir tizimga soldi. U 16 turdag'i olma payvandtaglarni ajratib, ularni Rim raqamlari bilan belgiladi (I-XVI). Bir davrda noklar uchun ham vegetativ ko'payadigan klon payvandtaglar ajratib olindi va ularni A dan S gacha bo'lgan xarflar bilan belgilandi. Xalqaro kelishuvlar asosida olma payvandtagini raqamini oldida EM (Ist-Moling) xarfini qo'llash qaror qilindi. Keyinchalik faqat M xarfi qo'llanadigan bo'ldi. Hozirgi vaqtda hamma davlatda rim raqamlari o'rniga (M- I, M-P) qo'llashga kelishilgan.





O'tgan asrning 20-yillarida Ist-Moling tajriba bo'limida Mertenda bog'dorchilik instituti bilan hamkorlikda (Shvetsiya) bir qator qon bitiga chidamli payvandtaglar yaratildi va ularga MolingMerton nomi berildi. Ular "MM" belgisi bilan yuritila boshladi va 101 dan 115 gacha bo'lgan raqamlar berildi. Bu guruhdan eng ahamiyatlilari quyidagilardir MM-102, MM104, MM-106, MM-109 va MM-111. VIII va IX turdagи payvandtaglar paradizka deb ataladi. III, V va VII dusen deyiladi.

Buxoro tumani "Bog'i Kalon" MFYda joylashgan "Siyovush Agro" bog'dorchilik fermer xo'jaligida o'tkazgan tajribamizda ham olma uchun sust o'suvchi pakana payvandtag "M-9" dan foydalanilgan. Bu payvandtaglar olmaning "Goldspur" va "Gala" navlariga ulangan bo'lib, har tomonlama mahsuldarlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lib kelmoqda. Bu pakana daraxtlar intensiv bog'da simbag'azlarga olinib, parvarish qilinmoqda [4,5,6].

So'nggi yillardada navlar soni ancha ko'paygan, yangi va yangi kombinatsiyalar hosil qilib, yuqoridagi payvandtaglar bilan uyg'un navlarni axtarishni davom ettirish va bizlarni sho'r va yer osti suvimiz yaqin bo'lgan hududlarda yaxshi o'suvchi kombinatsiyalarni topishni davom ettirish zarur. SHu bilan bir qatorda bu payvandtaglar, sho'r va yer osti suvi yaqin yerdarda o'suvchi payvandtalarni yaratish selektsiyasida foydalanishga loyiq deb hisoblanadi [7,8].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. В.И.Будаговский //«Карликовые подвои для яблони», М.: Сельхозгиз, 1959. С-352.
2. Савин Е.З.1, Мурсалимова Г.Р.2, Дегтярев Н.А. //Клоновые подвои яблони и груши в производственных условиях Оренбуржья//Вестник ОГУ.№12, 2008
3. FA Ganieva, R Yunusov // Economical innovative basis for the care of intensive stunted apple varieties//ajmr - Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)
- 4.GF Amrilloevna, Y Rustam - // Studying the different formations of apple trees in intensive orchards // European Journal of Agricultural and Rural Education, 2021
- 5.G.F. Amrilloyevna, Y. Rustam, // The growth, development and yield of apple trees in intensive fruit orchards are hardwood cutting combinations and their dependence on the thickness of seedlings//. NVEO-Natural volatiles & essential oils 08(5), 9591-9595 (2021)

6.F.A. Ganiyeva, // Apple tree productivity depending on planting density and rootstock variety combinations//. Web of E3S Web of Conferences 389, 03014 (2023) UESF-2023.





7.R.Yunusov, F.A. Ganiyeva, // Agrochemical properties of the soils of intensive apple orchards in Bukhara region//. Web of E3S Web of Conferences 116, 01005 (2023) EBWFF-2024.

8.R.Yunusov, F.A. Ganiyeva, //Dependence of varieties, plant thickness and resource saving technology small apples productivity//. Web of E3S Web of Conferences 116, 01023 (2023) EBWFF-2024.

